



International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies

International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies - is an international conference platform under open access policy. The conference is led by international expert members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed, edited by authors and evaluated on its own scholarly merits and research integration. Publishing and joining on the proceeding of the International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies will ensure publishing experience and indexing possibilities on various global indexing.

O'zbekistonda So'lak Bezlari O'smalarining Morfologik Va Immunogistokimyoviy Tahlili

Sultonov B. B.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Urganch filiali, Patomorfologiya
kafedrasi assistenti, O'zbekiston

Karimov R. X.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Urganch filiali, Ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo'yicha prorektor, O'zbekiston

Anatatsiya

So'lak bezlari o'smalari, nisbatan kam uchraydigan, lekin klinik va morfologik xilma-xilligi, og'ir klinik kechishi va davolashdagi qiyinchiliklari bilan ajralib turadigan kasalliklardir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tasnifiga ko'ra, so'lak bezlari o'smalari bosh va bo'yin sohasi yaxshi sifatli neoplaziyalarining 3-5 foizini tashkil etadi. Ushbu o'smalar asosan katta so'lak bezlarida (parotid bezda) uchrasa-da, kichik so'lak bezlarida ham mavjud. So'nggi yillarda immunohistokimyoviy va molekulyar-genetik tahlillar diagnostikani sezilarli darajada yaxshilagan bo'lsa-da, O'zbekistonda bu soha bo'yicha ilmiy izlanishlar yetarli emas. Tadqiqotimizning maqsadi O'zbekistonda so'lak bezlari o'smalarining patomorfologik xususiyatlari, immunogistokimyoviy belgilari va ekologik xavf omillari bilan bog'liq tahlillarni o'tkazishdan iborat. Tadqiqotimiz natijalari so'lak bezlari o'smalarining turli xil morfologik va immunogistokimyoviy xususiyatlarini aniqlashni, shuningdek, ekologik omillarni inobatga olgan holda diagnostic va davolash yondashuvlarini takomillashtirishni maqsad qildim. Ushbu tadqiqotimiz O'zbekistonda so'lak bezlari o'smalarini aniq tashxislashga yordam berishi kutilmoqda.

Kalit so'zlar: So'lak bezlari o'smalari, morfologik tahlil, immunogistokimyoviy markerlar, diagnostika, ekologik xavf omillari, O'zbekiston.

Kirish

So'lak bezlari o'smalari nisbatan kam uchraydigan kasalliklar bo'lsa-da, ular klinik va morfologik xilma-xilligi, kech tashxislanishi va og'ir oqibatlari tufayli onkologik amaliyotda katta dolzarb muammo hisoblanadi. Xususan, ekologik omillar, masalan, suv resurslarining sho'rlanishi, atmosferadagi chang zarrachalari va pestitsidlar ta'siri O'zbekistonda so'lak bezlari o'smalari rivojlanishiga xavf solmoqda. Shu bois, O'zbekistonda so'lak bezlari o'smalarining

patomorfologik tahlilini o'rganish ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Bu tadqiqotimda O'zbekistonda so'lak bezlari o'smalarining morfologik va immunogistokimyoviy tahlilini o'rganishni, shuningdek, kasallikning ekologik omillar bilan bog'liqligini aniqlashni maqsad qildim. Tadqiqotda, so'lak bezlari o'smalari bilan bog'liq yuqori diagnostik aniq usullarni takomillashtirish va keyinchalik ularni amaliyotda joriy etish kutilgandi.

Metodologiya

Tadqiqot 2024-2025 yillarda O'zbekistonda amalga oshirdik. Tadqiqotda 48 nafar so'lak bezlari o'smalari tashxisi qo'yilgan bemorlar o'rganib chiqdik. Bu tadqiqotning asosiy maqsadi so'lak bezlari o'smalarining morfologik va immunogistokimyoviy tahlilini chuqur o'rganishdir. Tadqiqot materiallari sifatida O'zbekistonning Onkologiya ilmiy-amaliy markazidan olingan bemorlarning klinik ma'lumotlari, kasallik tarixlari va morfologik tekshiruvlar natijalari tahlil qilib chiqdik. Tadqiqotga jami 48 nafar bemor jalb etiladi. Bemorlar quyidagi mezonlarga asosan tanlanadik:

- ✓ So'lak bezlari o'smalari tashxisi qo'yilgan bemorlar (2024-2025 yillar).
- ✓ Bemorlar O'zbekistonning turli hududlaridan (shahar va qishloqlar) tanlanadik.
- ✓ Bemorlar turli yoshdagi guruhlardan bo'ldi (18-75 yosh).

1. Klinik Ma'lumot: Bemorlardan yosh, jins, klinik tarix va o'smaning joylashuvi haqidagi ma'lumotlar to'pladik.

2. Gistologik Tahlil: So'lak bezlarining turli turlaridan olingan biopsiyalar 10% neytral formalinda fiksatsiya qilindi, spirtlarda dehidratsiya qilindik va parafin bloklarga joylashtirdik. MS-2 mikrotomi yordamida 5-6 mikron qalinlikdagi kesmalar tayyorladik va gematoksilin-eozin (H&E) bilan bo'yab chiqdik.

3. Immunogistokimyoviy Tahlil: S-100, p63, CK7, CK19, Ki-67, p53 va boshqa markerlar yordamida o'smalarning differensial tashxisi aniqladik.

Ma'lumot Tahlili;

- Deskriptiv statistika yordamida bemorlarning demografik ma'lumotlari va histologik turlari tahlil qilib chiqdik.
- Tumor tipi, yosh, jins va immunogistokimyoviy natijalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar tahlil qildik.

Axloqiy Qoidalar:

- Har bir bemordan rozilik oldik.
- Bemorlarga oid barcha ma'lumotlar maxfiy saqlanadi.

Kutilgan Natijalar:

- Tadqiqot salivary gland o'smalarining morfologik va immunogistokimyoviy tavsiflarini aniqlab chiqdik.
- Olingan ma'lumotlar asosida O'zbekiston uchun maxsus tashxis va davolash yondashuvlari ishlab chiqildi.

Natijalar

Tadqiqotimizda olingan natijalar O'zbekistonda so'lak bezlari o'smalarining patomorfologik va immunogistokimyoviy tahlilini o'rganishga qaratilgan. Bu tadqiqot, so'lak bezlari o'smalarining aniq tashxisi va davolash metodlarini ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotimizda parotid bezlari o'smalarining turli xil morfologik va immunogistokimyoviy xususiyatlari, shuningdek, ekologik omillarni inobatga olgan holda diagnostic va davolash yondashuvlari ishlab chiqdik. Tadqiqot natijalari so'lak bezlari o'smalarini o'z vaqtida va aniq tashxislash uchun yangi yondashuvlarni yaratishga xizmat qiladi degan umiddamiz va bu usullar

klirik amaliyotga tatbiq etilishi kutilmoqda.

Natija Bo'limi	Tavsif	Statistik Ma'lumotlar
O'sma Turlari	So'lak bezlari o'smalari turli turlarda uchraydi, jumladan benign va yaxshi sifatli o'smalar.	Pleomorf adenoma: 22 ta (45,8%)
Benign O'smalar	Benign o'smalar orasida pleomorf adenoma eng ko'p uchragan (45,8%).	Mucoepidermoid karsinoma: 12 ta (25%)
Yaxshi Sifatli O'smalar	Yaxshi sifatli o'smalar orasida mucoepidermoid karsinoma yetakchi bo'lgan (25%).	O'ng so'lak bezida: 26 ta (54,2%)
O'smaning Joylashuvi	O'sma ko'proq o'ng so'lak bezida joylashgan (54,2%), chap so'lak bezida esa kamroq (39,6%) topilgan.	Chap so'lak bezida: 19 ta (39,6%)
Metastazlar	Metastazlar 8 bemorda aniqlangan (16,6%), ularning 5 tasi 45-59 yosh guruhidan.	Metastazlar: 8 ta (16,6%)
Proliferatsion Faollik	Ki-67 indeksi yordamida o'sma hujayralarining proliferatsion faolligi tahlil qilindi. O'sma hujayralarining proliferatsiya indeksi past ($\leq 14\%$), o'rtacha (15-20%) va yuqori ($>20\%$) bo'ldi.	Ki-67 $<14\%$ (past): 40% hujayralar, Ki-67 15-20% (o'rtacha): 30%, Ki-67 $>20\%$ (yuqori): 30%
Diagnostika va Davolash Natijalari	Yangi diagnostika usullari, jumladan immunogistokimyoviy markerlar yordamida differensial tashxis qo'yish va davolash samaradorligini oshirish mumkin.	Immunogistokimyoviy markerlar yordamida 90% diagnostik aniqlik

Xulosa:

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda so'lak bezlari o'smalari asosan o'rta yosh (45-59 yosh) va katta yosh (60-74 yosh) guruhlarida ko'proq uchraydi. Gistologik tahlil natijasida pleomorf adenoma (45,8%) va mucoepidermoid karsinoma (25%) eng ko'p uchraydigan o'smalar bo'ldi. O'sma joylashuvi bo'yicha, o'ng so'lak bezida joylashgan o'smalar (54,2%) chap so'lak beziga nisbatan ko'proq (39,6%) aniqlangan. Metastazlar 8 bemorda (16,6%) aniqlanib, ularning 5 tasi 45-59 yosh guruhidan ekanligi ko'rsatilgan. Ki-67 indeksi yordamida o'sma hujayralarining proliferatsion faolligi baholandi. O'sma hujayralarining proliferatsiya indeksi past ($\leq 14\%$) bo'lgan bemorlar 40%, o'rtacha faollik (15-20%) esa 30%, yuqori faollik ($>20\%$) esa 30% ni tashkil etdi. Bu proliferatsiya faolligiga asoslangan prognoz va davolash yondashuvlarini belgilashda muhim rol o'ynadi. Immunogistokimyoviy tahlil natijalari ko'rsatganidek, S-100, p63, CK7, CK19, SOX10, DOG1, Ki-67 va p53 markerlarining qo'llanilishi o'smalarning farqlarini

aniqlashda yuqori diagnostik aniqlikni ta'minladi (90%). Yangi diagnostika usullari yordamida tashxis aniqroq qo'yildi va davolash samaradorligini oshirishga yordam berdi. Tadqiqotda olingan natijalar, so'lak bezlari o'smalarini o'z vaqtida tashxislash va davolash samaradorligini oshirish uchun yangi diagnostika va davolash yondashuvlarini ishlab chiqish zarurati ta'kidlandi. Shuningdek, ekologik omillarni hisobga olgan holda profilaktik choralar ishlab chiqish zarurligi aniqlandi.

Foydalangan adabiyotlar

1. A. Alikulov, K.S. Salimov, S.K. Abdalimov, S.S. Tursunov, "Clinical manifestations of salivary gland tumors," *VetMed*, 2024. <https://vetmed.uz>.
2. K. Kamilov, D. Polatova, D. Kakhkharova, et al., "Immunohistochemical markers in diagnostics of oral precancerous diseases," *American Journal of ...*, 2024. inlibrary. uz.
3. E.V. Kuzenko, E.O. Dyachenko, et al., "The morphological features of sialolithiasis in the context of benign and malignant tumors of the salivary gland," *Azerbaijan Medical ...*, 2024. azmedjournal.com.
4. B.B.Sultonov "Title of the article," *Biomedical Journal*, vol. 2025, no. 1, pp. 431-500, <https://wom.semanticjournals.org/index.php/biomed/article/view/500/431>.